

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI



Elektron ilmiy-ommabop jurnal

2025

5 -SON

(+998) 50-005-45-69

https://t.me/demografiya_mehnatbozori

demografiya_mehnat_bozori@mail.ru

**DEMOGRAFIYA
VA MEHNAT
BOZORI**

**2025-yil
5-son**

Elektron ilmiy-ommabop jurnal
Электронный научно-популярный
журнал
Electronic popular science journal

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

TAHRIR HAY' ATI:

Abduraxmonov Qalandar Xodjaevich, i.f.d., akademik.

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof.,

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof.,

Axmedov Durbek Quدراتillaevich, i.f.d., professor

Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.,

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, i.f.d., prof.,

Arabov Nurali Uralovich, i.f.d., prof.,

Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof.,

Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna, i.f.d., prof.,

Irmatova Aziza Baxromovna, i.f.d., prof.,

Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, g.f.d., professor

Isayev Faxriddin Ikramovich, i.f.d., prof.

Usmanov Anvar Saidmaxmudovich, i.f.d., professor

Qodirov Abdurashid Madjidovich, i.f.d., professor

Hermann Sterzinger, i.f.d., professor (Germaniya)

Ergashxodjaeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., professor

Tomash Kuchera, i.f.d., professor (Chexiya)

Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD

Shakarov Zafar Gaffarovich, PhD, dotsent

Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li, PhD

Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li, PhD

Asqarova Muhabbat Ibraximovna

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

MUNDARIJA

Усманов Анвар Саидмахмудович <i>Устойчивое развитие и выравнивание уровня жизни населения</i>	4
Usmanov Anvar Saidmaxmudovich, Xamdamov Shoh-Jaxon Rahmat o'g'li <i>O'zbekiston sanoatidagi uglerod izini qisqartirish</i>	16
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, Xalikchaeva Sadokat Ilxomjonovna <i>O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida soliq bazasini aniqlash metodologiyasining rivojlanish bosqichlari</i>	30
Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna, To'rayev Mirzohid Hoshim o'g'li <i>Janubiy Koreya davlatida uy xo'jaligi transfertlarining iqtisodiy ahamiyati hamda uni o'zbekistonga tatbiq etish imkoniyatlari</i>	44
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, Qurbonov Paxlavon Rustamovich <i>O'zbekiston respublikasida shaharlar tizimi shakllanishi va hududiy urbanistik tarkibdagi o'zgarishlar</i>	60
Musayev Bekzod Murodovich <i>Sirdaryo viloyati shaharlari aholi soni dinamikasi va tarkibining hududiy xususiyatlari</i>	74
Mirzayeva Matluba G'aybulla qizi <i>Fintech va mobil banking platformalarida kiberxavfsizlik darajasini baholashning ilg'or yondashuvlar</i>	83
Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li <i>Ishlab chiqarish korxonalarida moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining ahamiyati</i>	93
Bahriddinova Muazzam Azam qizi <i>O'zbekiston hududlarining demografik tahlili</i>	103
Umarov Omonjon Muxammad o'g'li <i>Yosh avlodni madaniy merosni saqlash va turizmga faol ishtirok etishga jalb qilish mexanizmlari</i>	115
Solixova Xumora Xasan qizi <i>Soliq yig'uvchanligini oshirishda jamoatchilik nazorati va ijtimoiy ongning roli</i>	125
Мухамадиева Кубриё Баходировна <i>Цифровая трансформация демографических исследований</i>	135
Shoydulova Maftuna Zafar qizi <i>O'zbekiston korxonalarida kadrlar boshqaruvida yoshlar va ayollarning rolini kuchaytirish strategiyalari</i>	142

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ BAZASINI ANIQLASH METODOLOGIYASINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich

i.f.d., prof., “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ITM direktori

Xalikchayeva Sadokat Ilxomjonovna

TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ITM doktoranti (DSc)

ORCID:0009-0002-8782-2762.

xalikchayeva@gmail.com

Annotation. Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimida 2000–2024 yillar oralig‘ida soliq bazasini aniqlash metodologiyasida yuz bergan o‘zgarishlar, ularning samaradorlik darajasi va amaliy natijalarini baholashga qaratilgan bo‘lib, tadqiqot konsepsiyasi tizimli, tarixiy, tahliliy va qiyosiy yondashuvlar integratsiyasiga asoslanadi. Unda soliq bazasini shakllantirishga ta’sir etuvchi omillar — normativ-huquqiy islohotlar, elektron raqamli tizimlarning joriy etilishi, soliq ma’murchiligining avtomatlashtirilishi hamda soliq to‘lovchilar faoliyatidagi o‘zgarishlar kompleks o‘rganiladi.

Keywords: soliqlar, soliq tizimi, soliq bazasi, soliq bazasini aniqlash metodologiyasi, yashirin iqtisodiyot, raqamlashtirish, “soliq mobil ilovasi,” E-Soliq.uz portal, “E-Invoice” raqamli tizimi.

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ МЕТОДОЛОГИИ ОПРЕДЕЛЕНИЯ НАЛОГОВОЙ БАЗЫ В НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Худойкулов Садирдин Каримович

д.э.н., профессор, директор «Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана» при ТГЭУ

Халикчаева Садокат Илхомжоновна

PhD, докторант (DSc) Научно-исследовательского центра «Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана» при ТГЭУ

Аннотация. Данная статья посвящена оценке изменений в методологии определения налоговой базы в налоговой системе Республики

Узбекистан в период 2000–2024 годов, их эффективности и практических результатов. Концепция исследования основывается на интеграции системного, исторического, аналитического и сравнительного подходов. В статье комплексно изучаются факторы, влияющие на формирование налоговой базы — нормативно-правовые реформы, внедрение цифровых систем, автоматизация налогового администрирования и изменения в деятельности налогоплательщиков.

Ключевые слова: налоги, налоговая система, налоговая база, методология определения налоговой базы, теневой сектор экономики, цифровизация, «Налоговое мобильное приложение», портал E-Soliq.uz, электронные системы «E-Invoice».

STAGES OF DEVELOPMENT OF THE METHODOLOGY FOR DETERMINING THE TAX BASE IN THE TAX SYSTEM OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Khudoyqulov Sadirdin Karimovich

*Doctor of Economics, Professor, Director of the TSUE e
“Scientific Foundations and Problems of the
Development of the Economy of Uzbekistan”*

Khalikchaeva Sadokat Ilkhomjonovna

*PhD, Doctoral (DSc) student of the Research Center
“Scientific Foundations and Problems of the
Development of the Economy of Uzbekistan” at TSUE*

Annotation. This article focuses on assessing the changes in the methodology for determining the tax base in the tax system of the Republic of Uzbekistan during 2000–2024, their effectiveness, and practical results. The research concept is based on the integration of systemic, historical, analytical, and comparative approaches. It comprehensively examines the factors influencing the formation of the tax base — normative and legal reforms, the introduction of digital systems, automation of tax administration, and changes in the activities of taxpayers.

Keywords: taxes, tax system, tax base, methodology for determining the tax base, shadow economy, digitalization, “Tax Mobile Application,” E-Soliq.uz portal, “E-Invoice” electronic systems.

Kirish.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan davlat moliya tizimining barqarorligi va samaradorligi, eng avvalo, soliqqa tortish mexanizmlarining ilmiy asoslanganligiga, xususan, soliq bazasini aniqlash metodologiyasining mukammalligiga bevosita bog'liqdir. Soliq bazasini to'g'ri aniqlash – fiskal siyosatning adolatlilik, shaffoflik va barqarorlik tamoyillarini ta'minlaydigan markaziy omil sifatida davlat byudjeti daromadlarining ishonchli manbaini shakllantiradi. Shu bois, so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida soliq bazasini aniqlash metodologiyasini modernizatsiya qilish, uni xalqaro standartlarga yaqinlashtirish hamda raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish masalalari ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Bu borada davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev o'zining iqtisodiy islohotlarga bag'ishlangan chiqishlarida *“Soliq tizimini soddalashtirish, soliq yukini kamaytirish va eng muhimi – soliqqa tortishning adolatli tizimini shakllantirish orqali fuqarolar va tadbirkorlarning davlatga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlash zarur”* deb qayd etganidek[1], soliq siyosatining zamonaviy paradigmasini – ya'ni fiskal barqarorlik bilan bir qatorda soliqqa tortish madaniyatini yuksaltirish, shaffof hisob-kitoblarni yo'lga qo'yish va raqamli boshqaruv tizimlarini keng joriy etish zarurligini ifodalaydi.

Bugungi kunda soliq bazasini aniqlash metodologiyasi nafaqat iqtisodiy o'lchovlar tizimi, balki boshqaruv madaniyatining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, raqamlashtirish jarayonlari (*“E-Soliq.uz”*, *“Soliq mobil ilovasi”*, *“Hisob-faktura”* tizimlari) soliq ma'murchiligida ochiqlikni ta'minlash, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish va soliq to'lovchilar xulq-atvorini intizomli shakllantirishga xizmat qilayotgan bir paytda, soliq bazasini aniqlashda metodologik asoslarning takomillashuvi O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Mazkur maqolada soliq bazasini aniqlash metodologiyasining O'zbekiston Respublikasi sharoitida shakllanishi va rivojlanish bosqichlari chuqur ilmiy tahlil qilingan holda, 2000–2024 yillar oralig'ida mazkur tizimda yuz bergan o'zgarishlar – an'anaviy statistik yondashuvlardan raqamli, analitik va modellashtirilgan tizimlarga o'tish jarayoni bosqichma-bosqich yoritiladi. Tadqiqotda soliqqa tortish bazasini aniqlashda qo'llanilayotgan metodologiyalar – deklarativ, elektron, bilvosita (indirekt), bank ma'lumotlari asosidagi hamda risk-tahlil modellarining amaliy qo'llanilishi va ularning samaradorlik darajasi tahlil qilinadi.

Bundan tashqari, maqolada O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi tajribasi xalqaro andozalar (OECD, IMF, Jahon banki, BEPS) bilan taqqoslanib, mavjud yutuqlar bilan bir qatorda muammoli jihatlar, jumladan, ayrim segmentlarda subyektiv yondashuvlar, texnik infratuzilma zaifligi va metodologik

murakkabliklar aniqlanadi. Ushbu tahlillar asosida soliq bazasini aniqlash metodologiyasini yanada takomillashtirish, raqamli monitoringni chuqurlashtirish va shaffof fiskal boshqaruvni ta'minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Shunday qilib, tadqiqotning asosiy maqsadi – O'zbekiston soliq tizimida soliq bazasini aniqlash metodologiyasining evolyutsiyasini ilmiy asosda o'rganish, xalqaro standartlar bilan uyg'unlik darajasini baholash hamda mavjud metodologik muammolarning yechim yo'llarini taklif etishdan iboratdir.

Adabiyotlar sharhi.

Soliq bazasini aniqlash metodologiyasi bo'yicha ilmiy qarashlar asosan iqtisodiy nazariya, fiskal siyosat va soliq boshqaruvi sohalarida shakllangan. Ushbu yo'nalishda olib borilgan xorijiy tadqiqotlarda soliqqa tortishning nazariy asoslari, soliq to'lovchi xulq-atvori va soliq ma'murchiligining samaradorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik keng yoritilgan. Jumladan, J.Stiglitz o'z asarida soliq tizimi davlat fiskal barqarorligini ta'minlashdagi markaziy omil ekanligini ta'kidlab, soliq bazasini aniqlashning ilmiy asoslangan mexanizmlari davlat daromadlarini barqarorlashtirishda muhim rol o'ynashini qayd etgan bo'lsa[2], T.Piketty tomonidan ilgari surilgan qarashlarda esa soliqqa tortish tizimida adolat tamoyillarini ta'minlash uchun soliq bazasini aniqlashda ijtimoiy tenglik va kapitalning qayta taqsimlanish mexanizmlariga e'tibor qaratish zarurligi ta'kidlanadi[3].

A.Laffer soliq stavkalari bilan soliq bazasi hajmi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilib, soliq yukining oshishi bilan bazaning torayishi xavfini asoslab beradi[4]. Albatta, bu yondashuv O'zbekiston sharoitida ham soliqqa tortishning optimal darajasini aniqlash uchun muhim nazariy asos hisoblanadi. Shuningdek, J.Alm va B.Torgler tadqiqotlarida soliq bazasining aniqligi va to'lovchilarning soliqqa munosabati o'rtasida bevosita bog'liqlik – soliq bazasining aniqligini ta'minlash uchun soliq ma'muriyatining adolatli, shaffof va samarali faoliyati zarurligi orqali tushuntirishga harakat qilinga bo'lsa[5], J.Slemrod tadqiqotlarida soliq madaniyatini soliq bazasini kengaytiruvchi "ko'rinmas mexanizm" sifatida izohlanib, soliq to'lovchilar ongida shakllangan ishonch fiskal barqarorlikni mustahkamlashini ko'rsatgan[6].

O'zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham soliq bazasini aniqlashda raqamli tizimlarning joriy etilishi, xususan "E-Soliq.uz", "Soliq mobil ilovasi" va "Hisob-faktura" elektron platformalari orqali shaffoflikni ta'minlashning ijobiy ta'siri yoritilgan. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida soliq bazasini aniqlash metodologiyasiga oid tadqiqotlar mustaqillik yillarida, ayniqsa 2017–2024 yillardagi soliq islohotlari davrida sezilarli darajada faollashgan. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash, raqamli

transformatsiya va fiskal barqarorlikni ta'minlash jarayonida soliq bazasining aniqligi va shaffofligini oshirish dolzarb masalaga aylandi. Shu bois, mahalliy olimlar tomonidan bu yo'nalishda ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Sh.Shodmonov, A.Vaxobov va N.Jo'raevlarning tadqiqotlarida soliq bazasini aniqlashda iqtisodiy faollik, soliqqa tortish ob'ekti va soliqqa yaroqli daromadlar hajmini to'g'ri baholash zarurligi ta'kidlanadi. Mualliflar, ayniqsa, soliq to'lovchi xulq-atvori va ma'muriy mexanizmlarning o'zaro uyg'unligi soliq bazasining haqiqiy hajmini aniqlashda muhim omil ekanini ko'rsatsalar[7], O.Abdullayeva va X.O'rinboyevlar tadqiqotlarida soliq bazasini aniqlashda fiskal barqarorlik, makroiqtisodiy muvozanat va byudjet siyosati o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinib, O'zbekiston uchun muhim xulosalar ishlab chiqilgan[8].

Shuningdek, A.Xoshimov va Z.Mamatqulovalar raqamlashtirish jarayonining soliq bazasini aniqlashdagi rolini chuqur tahlil qilgan holda, elektron hisobot tizimlari, "E-Soliq.uz" va "Hisob-faktura" kabi platformalar nafaqat shaffoflikni oshiradi, balki yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirib, soliqqa tortish bazasini aniqlashda aniqlikni ta'minlashini takidlashgan bo'lsa[9], N.Yuldashev esa soliq ma'murchiligi tizimidagi islohotlarni soliq bazasini kengaytirish bilan bog'lab, soliq siyosatining barqarorligi soliq to'lovchilarning madaniyati va davlatga ishonch darajasi bilan bevosita aloqadorligini ta'kidlaydi[10].

Bundan tashqari, A.Murodov va M.Tursunovlarning ilmiy maqolalarida soliq bazasini aniqlashning nazariy tamoyillari xalqaro amaliyot bilan qiyosiy o'rganilib, O'zbekiston uchun moslashtirilgan metodik yondashuvlar ishlab chiqilganini ham ko'rishimiz mumkin[11].

Umuman olganda, mahalliy va xorijiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston soliq tizimida soliq bazasini aniqlash metodologiyasi bosqichma-bosqich takomillashib borayotganligini va bu jarayon raqamli transformatsiya, soliq to'lovchilar madaniyatini oshirish, shaffoflikni kuchaytirish hamda yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish orqali amalga oshayotgan bo'lsada, uni yanada takomillashtirish zarurligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi va soliq siyosatida soliq bazasini aniqlash bilan bog'liq metodologiyalar o'rganilib, rasmiy statistik ma'lumotlar, elektron tizim ma'lumotlari, huquqiy-me'yoriy hujjatlar hamda xorijiy manbalar asosida tarixiy-tahliliy, empirik-analitik va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalangan holda ilmiy mushohada qilinadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida soliqlar bazasini aniqlash metodologiyasi davlat moliyaviy siyosatining muhim tarkibiy qismi ekanini yuqoridagi qismlarda yetarlicha ta'kidlaganligimizdan kelib chiqadigan bo'lsak, ushbu metodologiyalardagi mavjud holatning tahlilini bir nechta asosiy yo'nalishlar bo'yicha ko'rib chiqishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida quyidagi asosiy soliqlar mavjud:

1-jadval.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida mavjud asosiy soliqlar tarkibi va uning bazasi

Soliq turi	Soliq bazasi
Foyda solig'i	Sof foyda
Jismoniy shaxslar daromad solig'i	Ish haqi, boshqa daromadlar
QQS (Qo'shilgan qiymat solig'i)	Tovarlar, ishlar va xizmatlar realizatsiyasi qiymati
Aksiz solig'i	Aksiz tovarlarining realizatsiya hajmi yoki hajm birligi
Yer solig'i (yuridik va jismoniy shaxslar)	Yer maydonining hajmi va kategoriyasi (qishloq xo'jaligi, sanoat, turar joy va unumdorligi)
Mol-mulk solig'i (yuridik va jismoniy shaxslar)	Mol-mulkning kadastr qiymati yoki balans qiymati
Ijtimoiy soliq	Ish haqi fondi
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Suv iste'moli hajmi (kub metrda)
Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	Foydali qazilmalar hajmi yoki qiymati

1-jadvalda keltirilgan soliq turlarining bazasidan ko'rish mumkinki, uni aniqlash metodologiyasi bir muncha soddadek tuyiladi, ammo, soliq bazasini aniqlash metodologiyasining asosiy jihatlari uning huquqiy-me'yoriy asoslarida, raqamlashtirish va elektronlashtirishda namoyon bo'ladi. Chunonchi, soliq bazasini aniqlash metodologiyasida huquqiy-me'yoriy asoslar soliq kodeksi va unga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida belgilanadi. 2020-yil 1-yanvardan boshlab yangi tahrirdagi Soliq kodeksi kuchga kirib, soliq bazalarini aniqlashda yangicha yondashuvlar joriy etilganini hisobga oladigan bo'lsak, uning bazani aniqlashdagi yutuqlari sifatida soliq bazasi aniqligini oshirish uchun aniq va shaffof me'yorlar belgilangani va elektron hisob-faktura, soliq auditlari joriy etilganini e'tirof etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kamchiliklar sifatida esa ba'zi hollarda soliq bazasini aniqlashda subyektiv yondashuvlarning saqlanib qolayotgani, soliq to'lovchilarning ayrim segmentlari (masalan, kichik tadbirkorlar) uchun metodologiyalar murakkab ko'rinishda ekanligini aytishimiz mumkin.

Ikkinchi jihati hisoblangan **raqamlashtirish va elektronlashtirish jarayoni** so'nggi yillarda jadallashishi ("Soliq mobil ilovasi", E-Soliq.uz portali, "Hisob-faktura" elektron tizimlari) soliq bazasini aniqroq aniqlashga xizmat qilayotgani bilan izohlansa, uning eng afzal tomonlari sifatida quyidagilar bilan namoyon bo'ladi:

- soliq organlari real vaqt rejimida ma'lumot olishi;
- soliq to'lovchilar tomonidan ma'lumotlarni taqdim etishning soddalashuvi;
- soliq bazasini yashirish holatlari kamayayotgani.

Albatta, har bir voqeaning ijobiy jihatlari bo'lgani kabi salbiy yohud muammoli tomonlari ham ko'zga tashlanadi, jumladan, ayrim hududlarda internet infratuzilmasining zaifligi va kichik biznes subyektlarining texnik tayyorgarligining past ekanligi raqamlashtirish va elektronlashtirish jarayonining kamchiligi ko'rinishida yuzga chiqmoqda deyishimiz mumkin.

Shunday ekan, bu fikrlarimizning tasdig'i sifatida ayni kunlarda O'zbekiston Respublikasi soliq tizimidagi mavjud asosiy soliq turlarining bazasini aniqlash metodologiyasini ko'rib chiqish hamda oldingi davrdagi holat bilan taqqoslasak, albatta, bu mavjud muammolarni aniqlashga va uni bartaraf etish uchun kerakli chora-tadbirlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

O'zbekiston soliq tizimida soliq bazasini aniqlash metodologiyasining rivojlanishi iqtisodiy va texnologik omillarga bog'liq holda sezilarli o'zgarishlarga duch kelgan deyishimiz mumkin. O'zbekiston soliq tizimida soliq bazasini aniqlash metodologiyasining evolyutsiyasini shartli ravishta uch bosqich asosida tahlil qilish maqsadga muvofiq. Bunda, 2000-2010 yillar – **"eski yondashuv" davri deb ham atalib**, soliq bazasini aniqlash metodologiyasi rivojlanishidagi birinchi davr deb olsak, bu yillarda soliq bazasini aniqlash asosan statistik ko'rsatkichlar, soliq deklaratsiyalari va qog'oz hujjatlar asosida amalga oshirilgan bo'lib, ushbu yondashuvlar iqtisodiy faoliyatning yashirin qismini qamrab olishda yetarli samaradorlikka ega emas edi. Masalan, QQS soliq bazasi ko'pincha sotuvlar hajmiga asoslangan bo'lib, real vaqtli monitoring yo'q edi. Shu bilan birga, mol-mulk va yer solig'ida aniq mol-mulk ro'yxatlari va kadastr ma'lumotlari yetishmasligi tufayli soliq bazasi taxminiy edi. Jismoniy shaxslar daromad solig'i bo'yicha esa qo'lda to'ldirilgan deklaratsiyalar asosida hisob-kitoblar olib borilgan

ikkinchi davr sifatida 2010-2020 yillar – "o'tish davri" deya atash maqsadga muvofiqdir. Bu davrda E-DECLARATSIYA, STIR (soliq to'lovchi identifikatsiya

raqami), bank orqali hisob-kitoblar joriy qilina boshladi. Soliq organlarida elektron axborot tizimlari asta-sekin joriy qilina boshlab, QQS bo'yicha hisob-kitoblarni elektron shaklga o'tkazish, soliq to'lovchilar reyestrini yaratish, elektron nazorat-kassa mashinalarini tatbiq qilish boshlangan davr sifatida talqin qilish mumkin.

2020-2024 yillar –“zamonaviy yondashuv” davri **deya yuritilib, xususan**, O'zbekiston Respublikasida soliqqa tortish bazasini aniqlash metodologiyasi keyingi yillarda sezilarli darajada yangilandi. Ilgari (2000-2010 yillar) amalda bo'lgan metodologiyalar asosan statistik prognozlar, yillik yoki choraklik deklaratsiyalar, faoliyat turlari bo'yicha umumlashtirilgan ko'rsatkichlarga asoslangan bo'lib, bu yondashuvlar soliqqa tortish bazasining real hajmini aniqlashda sezilarli aniqlikdan yiroq edi. Ayniqsa, QQS, daromad solig'i, aksiz va mol-mulk soliqlari bo'yicha soliq bazasi asosan qog'oz shaklidagi hisobotlar asosida shakllantirilar, deklaratsiyalarda aks etgan daromadlar ham tekshiruvga kam tortilardi. Yashirin iqtisodiyot, norasmiy ishchi kuchi va naqd aylanma ustidan yetarli monitoring mavjud emas edi.

“Bugungi kunda esa soliq bazasini aniqlash metodologiyasi raqamli texnologiyalar asosida tubdan yangilandi. Elektron hisob-faktura (e-faktura) tizimining joriy qilinishi bilan QQS bo'yicha soliq bazasi real vaqt rejimida kuzatilmoqda. STIR va bank tranzaksiyalari bilan integratsiya qilish jismoniy shaxslarning daromadlarini aniq va avtomatik aniqlash imkonini berdi. Yer va mol-mulk solig'i bazasi kadastr, GIS, GPS texnologiyalari yordamida aniq va real vaqtli hisoblanmoqda. Shuningdek, aksiz solig'i monitoringida QR-kodlar va POS tizimlari orqali mahsulot aylanmasi avtomatik nazorat qilinmoqda”[12]. Soliqdan ozod qilishlar esa fiskal ta'sir (tax expenditure) asosida aniq baholanmoqda. Bu o'zgarishlar soliq ma'lumotlarining shaffofligi va to'liqligini oshirishga, yashirin iqtisodiyotni kamaytirishga va soliq tushumlarini barqarorlashtirishga xizmat

Umuman olganda, bugungi kundagi yondashuvlar xalqaro ilg'or tajribalar – xususan, **OECD, IMF va Jahon banki** metodologiyalariga yaqinlashgan bo'lib, O'zbekistonda soliq bazasini aniqlash jarayoni endilikda nafaqat fiskal maqsad, balki iqtisodiy shaffoflik va adolatni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bu esa soliq tushumlarining barqaror oshishiga ham, soliqqa tortish tizimining samaradorligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yuqoridagi fikrlarimizning umumlashmasi sifatida quyida berilgan jadvallar asosida tahlil qilsak.

Quyidagi 2-jadvalda har bir metodologiya qaysi soliqlarning bazasini aniqlashda asosiy usul ekanligi ko'rsatilgan bo'lib, unda turli metodologiyalar orqali soliq bazasi aniqlanadigan asosiy soliqlar tizimli tarzda keltirilgan. Mazkur **jadvalda daromad va mulkiy baza bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri aniqlash metodologiyasi bevosita soliq to'lovchining daromadlari va mulk qiymati asosida soliq bazasini belgilashga qaratilgan bo'lib, u asosan foyda solig'i va yuridik shaxslar mol-mulk solig'i** uchun qo'llaniladi. Mazkur yondashuvda korxonaning sof foydasi,

aktivlari va balansdagi mulk qiymati asosiy o'lchov mezonlari hisoblanib, ushbu metodologiya yuqori aniqlik va moliyaviy hisobotlar ishonchligiga tayanadi, ammo norasmiy iqtisodiyot ulushi katta bo'lgan sharoitda ba'zan soxtalashtirish xavfi mavjud. Shu bois bu metodologiya bilan bir qatorda deklarativ va elektron tizimlar orqali ma'lumotlarni tekshirish mexanizmlari joriy etilgan.

2-jadval.

O'zbekiston soliq tizimida soliq bazalarini aniqlashda foydalaniladigan asosiy metodologiyalar tahlili

Metodologiya	Baza aniqlanadigan asosiy soliqlar
Daromad/mulkiy baza bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri aniqlash	Foyda solig'i, Yuridik shaxslar mol-mulk solig'i
Soliq deklaratsiyalari va registrlari	QQS, Foyda solig'i, JShDS, Aylanmadan olinadigan soliq
Bank va to'lov tizimlari ma'lumotlari	Aylanmadan olinadigan soliq, QQS
Elektron tizimlar (E-invoice/EHF, ONKM, e-shartnoma/yukxat)	QQS (EHF), Aylanmadan olinadigan soliq (ONKM), Aksiz (markirovka/e-hisob)
Indirekt (qiyosiy) usullar: Net worth / Expenditure / Cash-flow	JShDS (yuqori xavfli shaxslar), Mikro biznes
Transfer narxlash (Arm's length) va bog'liq shaxslar	Foyda solig'i
Statistika va makro-modellashtirish (IO/SU, VAT-gap, MIMIC)	QQS, Aksiz, Foyda solig'i, JShDS (byudjet prognozi/ sektor baholari)
Indekslash va normativ qiymatlar	Yer solig'i, Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i, Suv resurslari/Yer qa'ri
Teskari hisob / manbada ushlab (reverse charge/withholding)	QQS (nerezident e-xizmatlari), JShDS (ish haqi/dividend/foizlar), Foyda solig'i

*“Soliq deklaratsiyalari va registrlari asosidagi” metodologiya esa QQS (qo'shilgan qiymat solig'i), foyda solig'i, **hamda** jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (JShDS) uchun asosiy usul hisoblanadi. Soliq deklaratsiyasi orqali subyektlar o'z daromadlari, xarajatlari va soliq majburiyatlarini mustaqil ravishda bildiradi. So'ngra deklaratsiya ma'lumotlari **soliq registrlari**, elektron ma'lumotlar bazasi, bank aylanmalari va kontragent ma'lumotlari bilan solishtiriladi. Ushbu tizim deklarativ metodologiyani shaffofligini ta'minlab, soliqlarning to'g'riligini nazorat qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, 2020-yildan boshlab E-INVoyS tizimi joriy etilishi QQS bazasini aniqlashda avtomatlashtirishga olib keldi.*

*“Bank va to'lov tizimlari ma'lumotlariga asoslangan” metodologiya esa aylanmadan olinadigan soliq va **QQS** uchun muhim bo'lib, bank tizimi orqali o'tgan to'lovlar, naqd pulsiz hisob-kitoblar soliq organlariga real vaqtda uzatiladi. Bu yondashuv yashirin aylanmalarni aniqlashda samarali sanalib, soliq bazasini aniqlashda tranzaksiya tahlili va pul oqimlari monitoringiga asoslanadi. Shuningdek, **bank ma'lumotlari** soliq ma'murchiligi uchun iqtisodiy faollik*

indikatorlarini shakllantirishda, soliqqa tortish bazasini kengaytirishda va soya iqtisodiyotini qisqartirishda asosiy manba hisoblanadi.

“Elektron tizimlar (EHF, ONKM, e-shartnoma)” asosidagi metodologiya Elektron hisob-fakturalar (EHF), onlayn nazorat-kassa mashinalari (ONKM), elektron shartnomalar tizimi soliq ma'lumotlarini real vaqt rejimida shakllantirish imkonini berib, **QQS, aylanmadan olinadigan soliq va aksiz solig'i** uchun muhim manba hisoblanadi. EHF orqali tovar va xizmatlarning harakati, narxi va miqdori elektron tarzda qayd etiladi. Shu bilan QQS bazasi avtomatik aniqlanadi. ONKM esa chakana savdo subyektlari daromadlarini yashirish imkoniyatini kamaytiradi. Ushbu tizimlarning joriy etilishi natijasida soliq bazasining aniqligi oshib, soliq ma'murchiligi xarajatlari qisqarsa, **Indirekt (bilvosita) usullar – Net worth, Expenditure va Cash-flow tahlili** kabi metodologiyalar **JShDS** va **mikro biznes** subyektlari uchun qo'llaniladi. U soliq to'lovchining rasmiy daromadlari bilan iste'mol darajasi o'rtasidagi tafovutni aniqlash orqali yashirin daromadlarni aniqlashga xizmat qiladigan metodologiya hisoblanib, **soya iqtisodiyotiga qarshi kurashda** muhim rol o'ynaydi.

“Transfer narxlash (Arm's length)” metodologiyasi ham soliq bazasini aniqlashdagi muhim tartiblardan bo'lib, asosan foyda solig'i uchun qo'llaniladi va yirik korporatsiyalar va transmilliy kompaniyalar o'rtasidagi o'zaro bitimlarni nazorat qilishga qaratilgan. Bu metodologiya *“Arm's length principle”* – ya'ni bitimlar bozor narxida amalga oshirilishi kerak degan tamoyilga asoslanadi. O'zbekiston 2020-yildan boshlab transfer narxlash bo'yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka kiritgani soliq bazasining chet elga sun'iy ko'chirilishini oldini olish imkonini bergan bo'lsa, *“Statistik va makro-modellashtirish” metodologiyasi QQS, aksiz, foyda solig'i va JShDS bazalarini aniqlashda byudjet prognozlash hamda sektor bo'yicha soliq yukini baholashda* ishlatiladi.

“Indekslash va normativ qiymatlar asosidagi” metodologiya esa yer solig'i, mol-mulk solig'i, tabiiy resurslar solig'i, hamda spesifik aksizlar uchun qo'llanilib, yer maydoni, binolarning normativ qiymati yoki resurs hajmiga qarab soliq bazasi belgilanadi. Shu orqali soliqqa tortish adolatliligi va barqarorligi ta'minlanadi. Ushbu metodologiya bugungi kunda soliq bazasini jismoniy ko'rsatkichlar asosida aniqlashda aniq va shaffof natijalar berib kelayotgani bilan arziqli bo'lsa, *“Teskari hisob va manbada ushlash” metodologiyasi QQS, foyda solig'i, va JShDSda* keng qo'llanilib, soliq bazasini tez aniqlash va soliq to'planishini kafolatlashda samarali mexanizm sifatida xizmat qilmoqda.

Tahlil natijasida ko'rinadiki, O'zbekiston soliq tizimida soliq bazasini aniqlash **uchun** ko'p metodologik yondashuvlar uyg'un qo'llanilmoqdaki, bu shaffoflikni oshirishga, prognoz ishonchliligini kuchaytirishga, xalqaro standartlarga mos yondashuvni ta'minlashga xizmat qilgan holda soliq bazasini aniqlash metodologiyasini raqamlashtirish, tahliliy modellashtirish va integratsiyalashgan nazorat tizimlari asosida rivojlantirib bormoqda va soliq siyosatini yanada adolatli, shaffof va barqaror qilishga xizmat qilmoqda.

3-jadval.

O'zbekiston soliq tizimida soliq bazasini aniqlash metodologiyasi rivojlanishining solishtirma jadvali

Ko'rsatkichlar	Oldingi yondashuv (2000-2010 yillar)	O'tish davri yondashuvi (2010-2020 yillar)	Bugungi kundagi yondashuv (2020-2024 yillar)
Metodologik asos	Asosan byudjet rejalashtirish uchun umumiy prognozlar va hisob-kitoblarga asoslangan umumiy hisob-kitob	Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga tayanilgan prognozlash, fiskal konsolidatsiya bosqichi; normativ-hisob usuli kengaygan	Top-down + bottom-up kombinatsiyasi, mikro va makro modellarga asoslangan tizimli yondashuv
Soliq bazasi aniqlash usullari	Rasmiy daromad ko'rsatkichlari, statistik koeffitsiyentlar asosida	Deklarativ hisobotlar va elektron statistik ma'lumotlar uyg'unligi	Tranzaksiya monitoringi, risk-profilling, mikrosimulyatsion tahlil
Ma'lumotlar manbasi	Statistika qo'mitasi, soliq deklaratsiyalari, tuman soliq inspeksiyalari	Elektron hisob-kitob tizimlari (1C, onlayn kassa), statistik bazalar bilan uyg'unlashgan	E-Soliq, STIR, E-faktura, POS, bank, kadastr, moliyaviy hisobotlar
Yashirin iqtisodiyotni baholash	Qisman so'rovnoma va rasmiy statistika asosida	Noformal sektorga oid baholash modellari (so'rovnoma, indeks) joriy etildi	Raqamli izlar (trace data), xatti-harakat modellar, big data
QQS va boshqa soliqlar monitoringi	Faoliyat turi asosida qisman nazorat, zaif e-faktura nazorati asosida	Elektron hisob-faktura tizimi joriy etildi, ammo cheklangan	E-faktura orqali real vaqtli tranzaksiya monitoringi
Imtiyozlarni baholash	Hisobga olinmagan yoki ta'siri baholanmagan	Qisman tahlil qilingan, lekin tizimlashtirilmagan	OECD metodologiyasi asosida tizimli baholash
Foydalaniladigan model turlari	Yillik prognoz va soliq stavkalari asosida taxminiy hisob	Regresion modellarga o'tish bosqichi, fiskal tahlil boshlanishi	Mikrosimulyatsion model, regressiya, integratsiyalashgan model
Xalqaro standartlarga moslik	Kam darajada (mahalliy qonunchilik asosida)	OECD, IMF, WB tavsiyalarini bosqichma-bosqich joriy etish	OECD, IMF, WB, BEPS talablariga to'liq moslashuv
Ijtimoiy-iqtisodiy omillar	Kiritilmagan	Bandlik, daromad darajasi va sektorlar kesimida umumiy baholash	Bandlik, iste'mol, ish haqi va investitsiya ko'rsatkichlari integratsiyasi

Quyida siz uchun O'zbekiston soliq tizimida soliq bazasini aniqlash metodologiyasining oldingi va bugungi kundagi (2024-yil holati) solishtirma jadvalini tayyorladik. Jadvalda asosiy metodologik yondashuvlar, texnologik infratuzilma, ma'lumotlar manbasi, sektorlar bo'yicha yondashuv va xalqaro standartlarga moslik keltirilgan.

3-jadval tahlilidan ko'rinadiki, O'zbekiston soliq tizimida soliq bazasini aniqlash metodologiyasi 2000-yildan hozirgacha bo'lgan davrda uch bosqichli rivojlanishni bosib o'tgan. Har bir bosqich iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi, fiskal boshqaruvning zamonaviylashuvi va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bilan belgilanadi.

Avvalo, metodologik asos jihatidan 2000–2010 yillar oralig'ida tizim markazlashgan, "yuqoridan pastga" yo'naltirilgan rejalashtirish tamoyiliga asoslangan bo'lsa, 2010–2020 yillarda bosqichma-bosqich normativ-hisob yondashuvlariga o'tildi. 2020 yildan boshlab esa soliq bazasini aniqlashda mikro va makro modellarning integratsiyasi, "top-down" va "bottom-up" yondashuvlarning uyg'unlashuvi kuzatildi. Bu esa ilmiy asoslangan tahliliy modelga o'tish jarayonini aks ettiradi. Shu bilan birga, soliq bazasini aniqlash usullari ham izchil takomillashdi: dastlab rasmiy statistika va daromad koeffitsiyentlariga tayanilgan tizim o'rnini avval tranzaksiyalarni kuzatish va statistik modellashtirish, so'ng esa real vaqt rejimidagi monitoring va risk-profiling tizimlari egalladi. Shu tariqa, soliq bazasining aniqligi va shaffofligi keskin oshdi.

Ma'lumotlar manbasi bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki, dastlab soliq inspeksiyalari va qog'oz deklaratsiyalar asosiy axborot manbai bo'lgan bo'lsa, 2010–2020 yillarda esa elektron hisobot tizimlari ("E-hisobot", "iC") paydo bo'lib, ma'lumotlar almashinuvi yo'lga qo'yildi. 2020-yillardan boshlab esa E-Soliq, STIR, E-Faktura, POS, bank va moliyaviy monitoring tizimlari yagona raqamli makonda birlashtirildi.

O'z navbatida, texnologik infratuzilma ham bosqichma-bosqich raqamlashtirilib, avval qo'lda yuritilgan tizimlar o'rnini 2010-yillarda elektron axborot tizimlari, 2020-yillarda esa sun'iy intellekt (AI), CRM va onlayn-platformalar egalladi. Bu esa soliq ma'murchiligi samaradorligini keskin oshirishga xizmat qilgan bo'lsa, yashirin iqtisodiyotni baholashda ham metodologik burilish yuz berdi. Chunonchi, ilgari statistik so'rovnomalar va umumiy ko'rsatkichlarga tayanilgan bo'lsa, hozirda raqamli izlar (trace data), katta ma'lumotlar ("big data") va model asosida regressiv tahlillardan foydalanilmoqda. Shu orqali soliqqa tortilmagan iqtisodiy faoliyatni aniqlash imkoniyati kengaydi deya ayta olamiz.

Shu yillar barobarida, QQS va boshqa soliqlarni monitoring qilish, audit tanlash tizimi ham tubdan o'zgarib bordi. Xususan, dastlab subyektiv tanlov va faoliyat turi asosidagi nazorat mavjud bo'lgan bo'lsa, 2010-yillarda elektron fakturalar orqali ma'lumotlar yig'ish joriy etildi. 2020-yillarga kelib esa bu tizim real

vaqt rejimidagi tranzaksiya monitoringi va risk-indikatorlar asosidagi avtomatik tanlov bilan almashtirilib, buning natijasida jarayonda shaffoflik oshib, inson omili kamaydi. Qolaversa, soha va segmentlar qamrovi ham kengayib borganining guvohi bo'lamiz jadvaldagi ma'lumotlar asosida. Ya'ni, dastlab faqat yirik korxonalar nazoratda bo'lgan bo'lsa, 2010-yillarda xizmat sohasi va o'rta biznes subyektlari qo'shildi, 2020-yillarda esa barcha sektorlar – savdo, transport, IT, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish tarmoqlari to'liq qamrab olindi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, imtiyozlarni baholash tizimi 2000-yillarda umuman shakllanmagan bo'lib, 2010-yillarda qisman tahlil boshlangan, hozirda esa OECD metodologiyasi asosida tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Bu esa fiskal siyosatning samaradorligini oshiruvchi muhim yo'nalish hisoblansa, foydalaniladigan modell turlari ham murakkablashib bordi. Masalan, dastlab oddiy yillik prognozlar asosida hisob-kitoblar yuritilgan bo'lsa, hozirda mikrosimulyatsion va regressiv-integratsiyalashgan modellardan foydalanilmoqda. Bu, albatta, ilmiy asoslangan prognozlash imkonini yaratadi. Shuningdek, xalqaro standartlarga moslik darajasi 2000-yillarda past bo'lgan bo'lsa, 2010-yillarda OECD, IMF va Jahon banki talablari joriy etila boshlagan, hozirda esa BEPS standartlariga to'liq moslash amalga oshirilgan. Monitoring shakli ham davriy hisobotlardan real vaqt monitoringiga o'tgan.

Umuman olganda, jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston soliq tizimi 2000–2024 yillar davomida an'anaviy statistika va deklarativ usullardan raqamli, modellashtirilgan, xalqaro standartlarga mos tizimga o'tgan. Bu esa milliy soliq siyosatining ilmiy asoslanganligini, boshqaruvda tahliliy yondashuvning kuchayganini va soliq bazasining aniqligi hamda shaffofligi yuqori darajaga yetganini tasdiqlaydi.

Yuqoridagi jadval asosida xulosa qiladigan bo'lsak, O'zbekiston soliq tizimida har bir soliq turi bo'yicha soliq bazasini aniqlash metodologiyasi tizimli asosda shakllangan bo'lib, ularning o'zaro uyg'unlashuvi mamlakatda fiskal barqarorlikni ta'minlashga, byudjet daromadlarini oshirishga va tadbirkorlik muhitini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, mavjud metodologiyalarni xalqaro soliq standartlariga moslashtirish, elektron hisob-kitob tizimlarini kengaytirish hamda soliq imtiyozlarini maqsadli mexanizmlarga aylantirish orqali soliq bazasining aniqligi va shaffofligini yanada kuchaytirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Xulosa va takliflar.

Biz yuqoridagilardan shu xulosaga keldikki, O'zbekiston soliq tizimida soliq bazasini aniqlash metodologiyasi so'nggi ikki besh yillikda sezilarli darajada rivojlandi. Bu jarayon an'anaviy statistika va deklarativ usullardan raqamli, model asosida va xalqaro standartlarga mos tizimga o'tishni o'z ichiga

oladi. Soliq bazasini aniqlash jarayoni ilmiy asoslangan, tahliliy va raqamli yondashuvlarga tayangan holda modernizatsiya qilindi.

Raqamli texnologiyalar, jumladan E-Soliq, E-Faktura, POS va moliyaviy monitoring tizmlari, shuningdek, mikro va makro modellarning integratsiyasi soliq bazasini aniqlashda aniqlik va shaffoflikni oshirdi. Soliq imtiyozlari tizimli tarzda baholanishi, risk-profilning va real vaqt monitoringi esa yashirin iqtisodiy faoliyatni aniqlash imkoniyatini kengaytirdi. Shu bilan birga, soliq ma'murchiligi samaradorligi oshdi, byudjet daromadlari barqarorlashdi, va soliq siyosati ilmiy asoslangan yondashuvga ega bo'ldi.

Biroq soliq bazasini aniqlash metodologiyasini yanada takomillashtirish davr talabi bo'lganligi uchun quyidagi takliflarni ilgari surmoqchimiz:

- 1) soliq bazasini aniqlash metodologiyasini xalqaro standartlarga to'liq moslashtirishni davom ettirish lozim;
- 2) elektron hisob-kitob va raqamli monitoring tizmlarini barcha hudud va tarmoqlarda kengaytirish ishlarini jadallashtirish darkor;
- 3) soliq imtiyozlarini maqsadga muvofiq va fiskal samaradorlikni oshiruvchi mexanizmlarga aylantirish kerak;
- 4) yashirin iqtisodiyot va noformal faoliyatni aniqlash uchun "big data" va sun'iy intellekt texnologiyalaridan kengroq foydalanish kerak deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2023-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi, president.uz
2. Стиглиц Дж. Э., Экономика государственного сектора. — М.: ИНФРА-М, 2010
3. Пикетти Т., Капитал в XXI веке. — М.: Ад Маргинем Пресс, 2015
4. Лаффер А., Кривая Лаффера и налогообложение // *Journal of Political Economy*. — 2004
5. Alm J., Torgler B. Culture differences and tax morale in the United States and in Europe // *Journal of Economic Psychology*. — 2006. — Vol. 27
6. Slemrod J., Tax compliance and enforcement: An overview // *National Tax Journal*. — 2007. — Vol. 60
7. Shodmonov Sh., Vahobov A., & Juraev N., "Soliqlar va soliqqa tortish" Darslik, T.: Iqtisodiyot, 2021
8. Abdullayeva O.T., O'rinboyev X.A. "Soliq siyosatini takomillashtirishda fiskal barqarorlik omillari". // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy jurnali. — 2022. — №3
9. Xoshimov A.M., Mamatqulova Z.B. "O'zbekiston soliq tizimida raqamli islohotlar va ularning soliq bazasiga ta'siri". // "Moliyaviy tahlil va prognozlash" jurnali. — 2023. — №2
10. Yuldashev N.X. "Soliq ma'murchiligini modernizatsiyalashning nazariy asoslari". — T.: TDIU, 2020
11. Murodov A.R., Tursunov M.A. "Soliq bazasini aniqlash metodologiyasining nazariy asoslari va xorij tajribalari". // "Iqtisodiy tahlil" ilmiy jurnali. — 2023. — №4
12. Abdullaev, J., & Tashkentov, S. (2023). "O'zbekistonda soliq bazasini aniqlash metodologiyasining raqamli transformatsiyasi", *Moliya va Soliq jurnali*, 3(12), 45-58.

